

**BOSHLANG'ICH SINF MATEMATIKA DARSLARI JARAYONIDA DIDAKTIK O
'YINLARDAN FOYDALANISH.**

Qutliyeva Dilafro'z To'yboyevna

*Navoiy viloyati Zarafshon shahar 2-umumiy o'rta ta'lif maktabi boshlang'ich sinf
o'qituvchisi.*

Hech kimga sir emaski, bugungi kunda o'ta shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda yashayapmiz . Axbarotlar oqimi shiddat bilan oshib borayotgan zamonaviylashuv sharoitida bilimlarni va texnalogiyalarni tez eskirishi bugungi yuqori ta'lif tizimi oldida yuqori darajada bilim egallagan, o'zining ijodiy kuchlariga ishonch hosil qila oladigan va egallagan bilimlarni mustaqil ravishda amalda qo'llay oladigan shaxsni tarbiyalab yetishtirish, ya'ni o'zi tanlagan soha sirlarini mukammal egallagan, tashabbuskor va ijodkor shaxsni tarbiyalash vazifasini qo'ymoqda. Boshlang'ich sinflarda matematika fanini o'qitish boshqa har qanday o'quv predmetini o'qitish kabi ta'lif, tarbiya va amaliy fazilatlarni hal qilishi kerak. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik, qobiliyatini shakllantirishni amalga oshirish muvaffaqiyati pedagoglar ixtisosiga, uning kasbga oid tayyorgarligiga bog'liq. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish, umuman maktab matematika kursini o'zlashtirishning dastlabgi bosqichi sifatida qaraladi. Matematika fanini bilish- bu barcha fanlarni bilish demakdir. Shu sababli, boshlang'ich sinf o'quvchilari matematika fani, matematik model, tabiat jarayonlarini anglashdagi matematik yondashuv, matematikani qo'llash va uning natijalari to'g'risida umumiy tushunchalarni to'g'ri anglashlari muhimdir. Boshlang'ich sinfda matematika fanini o'qitish boshqa har qanday o'quv predmetini o'qitish kabi ta'lif, tarbiya va amaliy fazilatlarni hal qilishi kerak. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik qobiliyatini shakllantirishni amalga oshirish muvaffaqiyati pedagoglar ixtisosiga, uning kasbga oid tayyorgarligiga bog'liq.

Hozirgi kunda boshlang'ich sinf matematika darslaridagi o'quv topshiriqlarini imkon qadar o'quvchi uchun qiziqarli, xilma-xil, ijodiy yondashib, intellektual tarzda bayon qilish o'quvchidan katta mahorat talab qiladi. Hatto oddiygina xotiraga yo'naltirilgan o'quv topshiriqlariga qo'shimcha shartli savollar qo'yib, o'quvchining mustaqil fikr yuritishi, izlanishi, ijodkotligi, topqirligini oshirish mumkin. Matematika darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining individual xususiyatini hisobga olgan holda ijodiy mazmundagi o'quv topshiriqlaridan foydalananish , guruh, kichik guruhlarda ishlash o'quvchining o'quv-biluv va ijodiy faoliyatini oshiradi, jamoada ishlash ko'nikmasi shakllanadi, bolada mustaqil fikr yuritish , xulosa chiqarish kabi xislatlarni tarbiyalaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik qobiliyatini shakllantirish maqsadida qiziqarli matematikaga oid didaktik o'yinlar, boshqotirmalar, geometrik

masala va mashqlar, muammoli arifmetik masalalar, mantiqiy savollar, ijodiy fikrlashga undovchi amaliy topshiriqlar, matematik mamundagi topishmoqlardan vosita sifatida foydalanish o'rinnlidir.


Matematikaga kreativ yondashish o'quvchilar bilimini boyitishga, ularda aqliy va ijodiy qobiliyatini o'sishiga yordam beradi. Qiziqarli matematik o'yinlar o'quvchilarning tafakkurini rivojlanishiga har tomonlama ta'sir etuvchi vosita hisoblanib, uning yordamida aqliy va irodaviy rivojlanish amalgalashadi. Fazoviy xayol, matematik tafakkur maqsadga qaratilganligi va maqsadga intilganlik, amaliy vazifalarni yechish uchun amallarning yo'llarini mustaqil qidirish va toppish bularning hammasi birgalikda matematikani muvaffaqiyatli egallashlari uchun talab qilinadi. Bola maktab ostonasida qadam qo'yar ekan qiziqishini yo'qotmaydi, u avvalgidek o'yinga o'ch bo'ladi. Hatto qiziqarli masalalar ham bolalarga faollikni uyg'otib, qobiliyatini rivojlantiradi.

Matematika darslarida ijodiy mazmundagi o'quv topshiriqlari: berilgan masalaga teskari masala tuzish, shartiga ma'lumotlari yetishmovchi masalalar, ko'p yechimli masalalar, mantiqiy mazmundagi ijodiy topshiriqlar, taqqoslashga doir topshiriqlar kabi ko'rinishlarga uchraydi.

Shunisi e'tiborliki, keyingi paytlarda nashr qilingan matematika darsliklarida o'quvchilarning mantiqiy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlar ko'paygan. O'quvchilarning darslikdagi ma'lum shartli belgilar bilan berilgan mantiqiy masalalarni yechishga bo'lgan qiziqishlari kuchaygan. Darslikda "Bo'sh kataknini to'ldiring", "Sonlar qatorini davom ettiring", "Rasm asosida masala tuzing va yeching", "Ishoralarni shunday qo'yingki, ifodalar to'g'ri bo'lsin", "Masalalarni qulay yechimini toping", "O'ylab top!", "Qobiliyatli o'quvchilar uchun boshqotirmalar", "Mantiqiy topshiriqlar", "Qiziqarli masalalar" deb ko'rsatilgan topshiriqlar o'quvchilarning faolligini oshiradi.

Tahlillardan ko'rinish turibdiki, 3- 4-sinf darsligi boshqa sinflarga nisbatan mukammalroq yaratilgan. Ammo o'quvchilar uchun qiyin bo'lgan topshiriqlar ham yetarli. Ana shu topshiriqlarni o'qituvchi kreativ yondashib, nazariy bilimlarni amalda qo'llab, ularni darsga faolligini oshirib, ta'limiy o'yinlardan foydalanib o'tsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Masalan, kasrlar mavzusini o'tganda amaliy topshiriq beriladi. Rangli qog'oz yordamida kasrlar devorini hosil qilish. Bu topshiriqni bajarish jarayonida o'quvchilarning jamoada ishlash, olgan nazariy bilimlarini birgalikda amalda qo'llash va ijodiy, aqliy ko'nikmalari rivojlanadi va hamkorlikda bajarib o'quv tarbiya maqsadiga erishadi.



ROST	YOLG`ON
$475 \times 2 = 950$	$136 \times 3 = 398$
$600 - 258 = 342$	$256 + 264 = 510$
$2 \text{ km} = 2000 \text{ m}$	$3 \text{ soat} = 120 \text{ minut}$
- silindr	- kvadrat
- beshburchak	- konus
$560 : 80 = 7$	$450 : 50 = 90$

Bunday boshqotirma o'yinlardan foydalanish boshlang'ich sinf o'quvchilarining zehni oshishiga, matematika faniga bo'lgan qiziqishining ortishiga, ijodiy fikrlashiga bevosita yordam beradi.

Xullas, biz boshlang'ich sinflarda matematika darslarini tashkil etish jarayonida yuqoridagi omillarga yetarli darajada amal qilsak, boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodkor qobiliyatlari rivojlanadi va pirovardida kelajakda ular o'zining ijodiy kuchlariga ishonch hosil qila oladigan va egallagan bilimlarni mustaqil ravishda amalda qo'llay oladigan shaxsga aylanadi, ya'ni o'zi tanlagan kasb sirlarini mukammal egallagan, tashabbuskor shaxs bo'lib yetishadi.